

REPUBLIKA  
KITOB PALATASI  
1979



Aziz bolajonlar, kuni kecha sevimli shoiringiz To'lan NIZOM tahririyatimiz mehmoni bo'ldi. Ta'til kunlaringizda zerikib qolmasligingiz uchun bir yangi she'riy doston yozib berishga va'da berdilar

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!



2009-yil  
29-iyun  
N:26  
(66723)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

Toshkentning 2200 yilligiga

### EZGULIKLAR BESHIGI

Oromingni qo'riqlaydi tunda hilol,  
Erkalatib uyg'otadi tongda quyosh.  
Bugun ko'rk-u jamolingga dunyolar lol,  
Ona shahrim, to'y muborak, ey qadim Shosh!

Otam deymu, onam deymu, borim deymu,  
Sen g'ururim, iftixorim, orim deymu.  
Poytaxtlarning orasida norim deymu,  
Ajdodlardan o'zing meros, ey ko'hna Chosh!



Sen muazzam ko'prikdirsan, degim kelar,  
Yurtim bilan dunyolarni bog'lab turgan.  
Tuproq'ingni to'tiyolar qilgim kelar,  
Allomalar bolalikda chopib yurgan.


Xiyobonlar jamolidan qamashar ko'z,  
Ko'rk talashar osmono'par binolaring.  
Guzarlaring ta'rifiga topolmam so'z,  
Dil yayratar favvorali jilolaring.

Moviy osmon timsolidir gumbazlaring,  
Do'stga peshvoz o'n ikkita darvozan bor.  
Odamlaring shirinsuxan, tanti biram,  
Mag'ribdan to mashriqqacha ovozan bor.

Ravon yo'llar - qon tomiring misli ular,  
Ko'priklaring manzillarni yaqin qilar,  
Seni desam, menga mudom tole kular,  
Ona yurtim eshigisan, ey Toshkentim,  
Ezguliklar beshigisan, hur bosh Kentim!

Peruza JALILOVA





Toshkent shahrining 2200 yilligiga

## ULKAN SOAT

Bolalar, siz Toshkent kuranti tarixini bilasizmi? Amir, Temir xiyobonidan o'tar ekansiz, mahobatli soatga ko'zingiz tushadi. Minoraga o'rnatilgan bu soat har chorak, yarim va bir soatda bong uradi.

Soat Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alaba sharafiga yodgorlik sifatida barpo etilgan. Soat mexanizmini soatsoz usta A. Ayrenshten Sharqiy Rossiyaning Allensten shahridan keltirgan ekan. Minoraga soat to'rt tomondan

ko'rinadigan qilib o'rnatilgan.

Soat to'xtovsiz ishlaydi va aniq vaqtni ko'rsatadi. 1966-yilda zilzila natijasida 5 dan 24 daqiqa o'tganini ko'rsatgan cha to'xtab qolgan ekan. Soatsoz ustalar uni zudlik bilan ta'mirlab, ishlatib yuboribdilar. Soat o'rnatilgan minora milliy me'morchilikka xos naqshlar bilan bezatilgan. Soat mexanizmlari 1991-yilda ta'mirlangan. Toshkentning 2200 yilligi to'yiga kurant qayta ta'mirlanib, yanada chiroyli bo'ldi.

Maftuna RAHMONBEKOVA

## BILASIZMI?

Eng katta va vazni og'ir do'l 1986-yil 14-aprelda Bangladeshda yoqqan. O'shanda bir dona do'lning og'irligi 1 kg. bo'lib, hammani hayratda qoldirgan va odamlar undan dahshatga tushishgan.

\*\*\*

Gavayyaning Kauan orolidagi Vay-Ape-Ape tog'ida bir yilda 350 kun yomg'ir yog'adi.

\*\*\*

Dunyoga mashhur Bangkok shahrining nomi butunlay boshqacha bo'lib, u 167 ta harfdan iborat. Bu nomning aniq tarjimasini hanuzgacha hech kim bilmaydi. Ammo uning mazmuniga ko'ra, ushbu shaharda farishtalar yashashi haqida so'z boradi.


\*\*\*

Amerika Qo'shma Shtatida nomi eng uzun shahar Los Anjeles hisoblanadi. Uning to'liq nomi esa «El Pueblo De Nuestra Sentora La Reyna De Los Anjeles De La Porsinkula»dir.

Oromgohda bir kun

Ta'til kunlarining birida «Oqtosh»ga yo'l oldik. Maqsadimiz, «Avtomobilchi» oromgohida o'tkaziladigan sport musobaqalarini tomosha qilib, shu bilan birga, u yerda dam olayotgan bolajonlar bilan tanishish edi.

Hamrohimiz – ushbu tadbir tashkilotchisi Yunusobod tuman Ma'naviyat targ'ibot markazi rahbari Nigora Abdurahimovaning aytishlaricha, ta'til kunlarida bunday tadbirlarni ko'plab oromgohlarda o'tkazishar ekan.




## ENG ZOR JAZO VA MUKOFOT



Oromgohga kirib borganimizda, sport musobaqalari boshlab yuborilgan edi. Biroz vaqt o'tgach, shaxmat-shashka to'garagi rahbari Muxlisa Buxorova qizlar orasida shashka bo'yicha musobaqa boshlanganini ma'lum qildi. Ushbu musobaqada Aziza Erkinova 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Biz g'olibani muvaffaqiyat bilan qutlab, suhbatga chorladik:

– Aziza, ta'tildagi dam olishdan ko'nglingiz to'lyaptimi?



(Davomi 3-betda)

O'simliklar olamidagi ajoyib xususiyatlarni bilganingiz sari, ular haqida yanada ko'proq bilgingiz kelaveradi. Axir bilim inson tafakkurini kengaytiradi, uning fikrlash qobiliyatini oshiradi. Shunday emasmi? Eng qizig'i shundaki, ko'p narsa bilganingiz sari, kam narsa bilishingiz oydinlashaveradi. Shuning uchun ham ilm buloqqa o'xshaydi. Ichgan saring to'yimaysan. Buni qarangi, o'simliklar olami haqidagi suhbatning ham chegarasi yo'qdek. Misol uchun o'simliklar olamining «qirol» hisoblangan oddiygina daraxtni olib ko'raylik. Uning boshidan o'tgan voqealar haqida uzoq vaqt gapirish mumkin. Chunki Yer sharida odamlar paydo bo'lmasdan oldin, paydo bo'lgan daraxtlar o'z boshidan ne-ne voqealarni kechirmagan deysiz?! Axir ayrim daraxtlar 3000, 5000 yil yashashini e'tiborga olsak, fikrimiz to'g'riligiga hech qanday shubha qolmaydi. Shu sababli suhbatimizni o'simliklar olamining «qirol» – daraxtlarga burgim keldi.

## O'SIMLIKLAR OLAMINING «QIROLI»



– O'ktam aka, umrboqiy daraxtlar, eng tez o'suvchi daraxtlar haqida ko'p eshitganman. Shunday daraxtlar tabiatda rostdan ham bormi?

– Albatta, bor. Ana shunday daraxtlardan biri Sharqiy Nevada o'suvchi umrboqiy qarag'aydir. Olimlar hisobiga ko'ra, uning yoshi 5100 yilga teng ekan. Qrimning Ay-Petri tog'laridagi tiss daraxtining yoshi 1200 yildan oshadi. Surxondaryo viloyatidagi chinor esa 850 yoshda deya e'tirof etilgan.

Endi eng tez o'suvchi daraxtga kelsak, bunday daraxt Malayziyada o'sadi. O'roqsimon albtsiya deb ataluvchi bu daraxt yiliga o'suv davrida taxminan 11 metr o'sadi. Keling, shu o'rinda eng sekin o'suvchi daraxt haqida ham aytib o'tay: Meksikada o'suvchi dion daraxti bir yil ichida atigi 0,76 mm. o'sgan, xolos. Qizig'i

shundaki, bu butaning bo'yi 10 sm. bo'lib, yoshi 120 ga teng.

Sayyoramizda o'z salobati bilan bizni hayron qoldiradigan daraxtlar ko'p. Bu borada Avstraliya ekvaliptiga tenglashadigan hozircha topilmagan. Uning bo'yi 155 metrga yetadi.


O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda o'sadigan chinor o'quvchilarimizga juda yaxshi tanish. Chinor sovuqqa, qurg'oqchilikka chidamli, yorug'sevor o'simlik. Bu daraxt ham 2000, 3000 yil yashaydi. Hozir Toshkentda 100 yoshdan oshgan chinorlar juda ko'p.

Respublikamiz viloyatlari, jumladan, Samarqandda 500 yoshli, Namanganda 420-550 yoshli, Surxondaryo viloyati, Boysun tumanida 850 yoshli chinorlar bor.

Shu o'rinda boshqa davlatlarda o'sadigan non daraxti haqidagi ma'lumotlar

o'rgatgan loydan joni-  
vorlar yasash mashg'uloti  
juda yoqadi.

- Qizlar orasida  
o'tkazilgan shaxmat-  
shashka musobaqasida  
1-o'rin sohibasi  
bo'ldingiz. Xuddi shu  
musobaqada o'g'il  
bolalar orasida  
Hamidulla Habibul-  
layev 1-o'rinni  
egalladi. Hamidulla bilan



shashka o'ynashni xohlamabsizmi?  
- Xohlayman.

Bu taklifga Habibullani ham  
ko'ndirgach, ikki g'olib o'yinini kuzata

opalarini xafa qilmaslikka harakat  
qilarkanlar. Shuning uchun ham bolalar  
vaqtida o'ynab, vaqtida dam olishar  
ekan.



boshladik. Avvaliga Habibulla yutsa  
kerak, degan fikrda edik. Keyin esa  
Habibulla qiz bolaga hurmat yuzasidan  
yon bosdimi, xullas, bu bellashuvda ham  
qahramonimiz g'olib bo'ldi. Shundan  
so'ng, g'olibamiz Aziza  
hamda uning dugonasi  
Madina Xolxo'jayeva bilan  
birgalikda oromgohni aylana  
boshladik. Ular bilan aylanib  
yurib, to'polonchi o'g'il-  
qizlar bilan tanishib oldik.  
Ularning aytishlaricha,  
yetakchi opalari Navro'za  
Hoshimova «Diskotekaga  
chiqmaysizlar», deya jazolar  
ekanlar. Bu jazo ular uchun  
eng og'ir jazo bo'lib, iloji  
boricha to'polon qilmay,  
tarbiyachi va yetakchi

Shu kuni oromgohda  
«Yagonasan, muqaddas  
Vatan!» shiori ostida tadbir  
bo'lib o'tdi. M.Turg'unbo-  
yeva va Furqat nomidagi  
madaniyat uylari san'atkor-  
larining chiqishlari,  
xushovoz xonandalar  
Sitora Ahmedova, Aynura  
Abdullayeva, Go'zal,  
Gulnoza ijro etgan  
qo'shiqlar bolajonlarni  
xushnud etdi. Tadbir  
so'nggida sport musoba-  
qalari g'oliblari Yunusobod tuman  
«Adolat» SDP Kengashi tomonidan  
«Faxriy yorliq»lar bilan  
mukofotlandilar. Bu quvonchli voqea  
bolajonlar qalbida uzoq muddat saqlanib  
qolishiga aminmiz.

Gulyuz BAHODIR qizi



## DILROZNING

San'atsevar bolajonlar, kuni kecha  
sevimli xonandangiz Iroda Dilroz  
gazetamiz mehmoni bo'ldi.

U 1979-yil Toshkent viloyati,  
O'rtachirchiq tumanida tug'ilgan. Avval  
Hamza musiqa bilim yurtida,  
keyinchalik O'zbekiston Davlat san'at  
oliygohida rejissyorlik sohasi bo'yicha  
tahsil olgan. Ish faoliyatini «Tomosha»  
bolalar folklor studiyasida boshlagan.  
Turkiya, Germaniya, Gollandiya,  
Koreya, Xitoy, Birlashgan Arab amirligi,  
Hindiston, Malayziya, Fransiya kabi  
davlatlarda bo'lib, elimiz san'atini  
namoyish etgan. Dilroz opangizning dil  
izhorini sizlar bilan baham ko'rishga  
qaror qildik.

## DIL IZHORI

shoirlar bor, ularning she'rlarini  
o'qib, ohangini darrov topasiz.  
Masalan: Muhammad Yusufning  
yozgan she'rlari har biri qo'shiq  
bo'lib tug'ilgandek tuyuladi.  
Bastakorlikdan mahoratim borligi  
uchun shuni bilamanki, she'rda unli  
harflar ko'p bo'lsa, qo'shiq yaratish  
oson kechadi.

- Qaysi shoir va bastakorlar  
bilan ishlaysiz?

- Shoirlardan Muhammad  
Yusuf, Iqbol Mirzo, Rizqiloy  
Hotamova, bastakorlardan Jasur  
Abdurahmonov, Musaxon Nurmatov  
bilan hamkorlik qilaman.  
Shuningdek, o'zim ham musiqa  
bastalayman.

- «Yagonasan, muqaddas  
Vatan!» ko'rik-tanlovi e'lon qilindi.  
Tanlovda qaysi qo'shig'ingiz bilan  
ishtirok etmoqchisiz?

- Vatan haqida o'tkaziladigan  
tanlovda ishtirok etish har bir  
xonandaning orzusi. Vatan nomini  
ko'klarga ko'tarish, uni madh etish  
bu san'atkor uchun haqiqiy baxt.  
Men o'zimning «Qanday baxtliman»  
qo'shig'im bilan ishtirok  
etmoqchiman. Gap tanlovda yutish  
yoki yutmaslikda emas, men  
shunchaki yuragimdagini elga izhor  
etmoqchiman. Kishi samimiy  
bo'lishi kerak, balandparvoz  
so'zlarning keragi yo'q.

- «Tong yulduzi» gazetasi  
muxlislariga, jumladan, yoshlarga  
tilaklaringiz.

- Har bir o'g'il-qiz hayotda o'z  
o'rnini topishini istayman. Hayot  
qidirishdan iborat. Kishi o'zligini  
topsagina, baxtli hisoblanadi. Ana  
shunday buyuk baxt har biringizga  
nasib etsin!

Axtamqul KARIM  
suhbatlashdi

- Dilroz, qo'shiq ko'ngilning  
g'uborlarini yuvadi. Kishiga xush  
kayfiyat bag'ishlaydi. Tinglovchi  
qo'shiq eshitib, goh tushkun, goh  
sarxush holatga tushadi.  
Qo'shiqning sirini nimada deb  
o'ylaysiz?

- To'g'ri aytasiz. Qo'shiqning sir-  
u sinoatlari ko'p, qachonki u yaxshi  
qo'shiq bo'lsa. Har bir qo'shiqchining  
orzusi - ko'proq muxlislar orttirish.  
Ammo har doim ham aytgan qo'shig'i  
muvaffaqiyatli chiqavermaydi.  
Buning uchun juda ko'p izlanish  
kerak. Menimcha, qo'shiqning siri  
matnning mukammalligida. Xonanda  
she'rdan ta'sirlansa, yuragidan  
chiqarib kuylaydi. Yurakdan chiqqan  
qo'shiq, yurakka boradi.

- Qanday she'rdan yaxshi  
qo'shiq yaraladi?

- Hamma she'r ham qo'shiq  
bo'lavermaydi? Qo'shiq yozadigan

### .. (Boshi 2-betda)

o'quvchilarimizni qiziqtirishi tabiiy.

Non daraxti Braziliya, Indoneziya, Yeva  
orollari va Hindistonning janubiy-sharqiy  
qismida o'sadi. Bu daraxt nihoyatda xush-  
manzara va chiroyli bo'lib, bo'yi 35 metrgacha  
yetadi. Mevasi juda yirik, og'irligi 10-14 kg,  
meva uzunligi 60-90 sm, eni esa taxminan 40-  
60 sm. atrofida. Mahalliy aholi pishgan mevani  
achitib, shirin non tayyorlashadi.

Tabiat mo'jizasi hisoblangan daraxtlar  
nafaqat oziq-ovqat, qurilish mahsulotlari  
manbai, balki insonlarning eng yaqin do'sti  
hamdir. Daraxtlar odamlardagi ayrim  
kasallikni o'ziga tortib olish quvvatiga  
egalligi bilan ham bizni hayron qoldiradi.

Shu sabab ham ularni asrab-avaylash,  
ko'paytirish har birimizning har kungi  
odatimizga aylanishini chin dildan istab  
qolaman.

Bolajonlar! Sizning bilim va  
zehningizni sinab ko'rish maqsadida  
quyidagi savollarni taqdim etyapmiz:

1. Bu daraxt hatto Hindistonda ham

o'sadi. Uning tik o'sadigan tanasi 30  
metrgacha yetadi. Pishgan mevasining  
mag'zi qattiq bo'ladi. Bu daraxtning  
tanasi 35 yoshdan oshgandan so'ng imorat  
qurilish materiali sifatida ishlatiladi. Bu  
sifatlar qaysi daraxtga tegishli?

- A) yong'oq;  
B) xurmo;  
D) kokos palmasi;  
E) xurmo va kokos palmasi hamda  
yong'oq;  
F) E javob to'g'ri.

2. Bu olim o'simlik barglari,  
poyalari, ildizlarining mikroskop  
tuzilishiga ta'rif bergan. O'simliklar  
poyasidagi alohida qismlarning o'zaro  
bog'liqligini aytgan olimning nomi.

- A) ingliz tabiatshunosi N.Gryu;  
B) ingliz fizigi R.Guk;  
D) Italiya olimi A.Chezalpino;  
E) Italiya olimi M.Malpigi;  
F) nemis botanik olimi M.Shleyden.

Bahrom AKBAROV





## ONA TILIM

Havoyni kuyatgan til — ona tilim,  
Bolib dila yayratgan til — ona tilim.  
Har kalima kamolingga tasadduqman,  
Tilginamni sayratgan til — ona tilim!

Mahbuba QOIROVA,  
Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 32-umumta'lim  
maktabning 5-sinf o'quvchisi

## Istiqlol ilhomlari

Siz sokin boqasiz minoralardan,  
Nigohlaringizda ma'nolar kezar.  
So'zingiz tinglaymiz olis moziydan,  
Ularning qudrati qalblarni bezar.

Barkamol ming-minglab o'g'il va qizlar,  
Sohibqironga ham, Sizga ham izdosh.  
Mehringiz tafti bor ul Samarqandda,  
Minoralarni bezar go'yoki quyosh.

Bibixonim Sizga dunyo hayratda,  
Bizga o'rnak erur mahoratingiz.  
Muttasil o'tarlar asrlar qancha,  
Tillarda dostondir jasoratingiz.

Ulug'bek RAHMONQULOV,  
Toshkent menejment va texnologiyalar kolleji 1-  
bosqich talabasi



Tong oladi beg'ubor,  
Dillarni etib xushhol,  
Ofob nurlar sochadi,  
Baxt eshigin ochadi.

Chechaklar ham jilmayib,  
Kafida olov yonar,  
Subhidam isin tuyib,  
Ko'ngil qonar, dil qonar.

Gulga tushgan shudringlar,  
Ayling, mehrga zormi?  
Zulmadan qildik zafar,  
Bundan go'zal baxt bormi?

Bobur  
UBAYDULLAYEV,  
TTESI qoshidagi  
akademik litseyning 1-  
bosqich talabasi

## MARD YIGITLAR



Yoqa chertib, ko'krak kerib yurganlar  
Ardoqlangiz, seving gul-gul yuzlarni.  
Bir kalima shirin so'zni qizg'anmang,  
Mard yigitlar yig'latmaydi qizlarni.

Og'ritmangiz guldun nozik ko'ngilni  
Tavof qiling ular yurgan izlarni.  
Yuzingizga surting nafis qo'lini,  
Mard yigitlar yig'latmaydi qizlarni.

Birozgina hazil qilsa, ayb bilmang,  
E'zozlaydi umr bo'yi sizlarni.  
Yurak yutib erkalasa, yuz burmang,  
Mard yigitlar yig'latmaydi qizlarni.

Umringizni bezab turgan gulingiz  
Yoshlantirmang kulib turgan ko'zlarni.  
Birda shoh-u birda esa qulingiz,  
Mard yigitlar yig'latmaydi qizlarni.

Hosiya RAJABOVA,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus  
shahri



Go'zaloy niyatiga yetdi

— Buni qarang-a, bizning  
Nasriddin Afandi-ku, — dedim  
hamrohimga quvonib, Afandini  
Shinjonda ko'rib.

— Yo'q, Nasriddin Afandi  
bizniki, — dedi u ham bo'sh  
kelmay.

Tortishib turganimizda,  
yetmish yoshlarni bosib o'tgan

qilgan edi-da.

Yana bir sahna ko'rinishida esa dangasa Hasan-  
Husanlarni musiqa sadolari orqali tarbiyalab,  
hunarmandlikka, ustachilikka o'rgatadi. Tez kunda esa  
ular ishyoqmaslikdan qutilib, atrofdagilarga foydasi  
tegadigan, mohir usta bo'lib yetishadi.

Shuningdek, Afandi yurtga, ota-onaga bo'lgan mehr-  
muhabbatni ulug'laydi, do'stlikni qadrlaydi, ilmni  
e'zozlaydi, sadoqatni esa har narsadan ustun ko'radi.

## Safar taassurotlari

# NASRIDDIN AFANDI XITROYDA

Kimdagi mana shu fazilatlar mujassam bo'lsa, u yetuk,  
mukammal inson hisoblanadi. Yer yuzidagi barcha  
bolalarni ana shunday yetuk va mukammal inson  
bo'lishlarini chin dildan istaydi.

Yosh tomoshabinlar Afandi va uning eshagini yaxshi  
ko'rib qolishdi. Spektakldan so'ng jonli savol-javob  
bo'ldi. Birga esdalik uchun suratga tushishdi. Afandidan  
sovg'alar olishdi.


Biz esa yuqorida onaxon aytganlaridek, Nasriddin

kino rejissyori  
Dilshoda Muqit:  
— Nasriddin  
Afandi O'rta  
Osiyo  
xalqlarini,  
qolaversa, yer  
yuzidagi yaxshi  
niyatli  
insonlarning  
Afandisidir, —  
dedilar onaxon.


Onaxonning gaplariga biz ham qo'shildik.  
Yaxshi niyatli insonlarning Afandisini ko'rish  
uchun Shinjon avtonom tumani sirkida qo'yilgan  
«Yaxshimisiz, Nasriddin Afandi» spektaklini  
tomosha qilgani shoshildik.

Ta'til bo'lgani uchun ham tomoshabinlarning  
aksariyati xitoylik tengdoshlaringizdan iborat edi.  
Ular bilan birgalikda spektaklni tomosha qildik.

Afandi o'zining «aqli» eshagi bilan bozorga  
keta turib, yoshlarning nikoh to'yiga duch keladi.  
Ularni duo qilib, baxt tilaydi. Afandi yo'lida  
davom etar ekan, yetim qiz Go'zaloyning orzusini amalga  
oshirishga oshiqadi. U oyga chiqishni, yulduzlar bilan  
gaplashishni, yonida esa eng aziz insonlari bo'lishini orzu



— Bolalar tabassumi menga qanot beradi,  
— deydi yosh aktyor Abdushukur To'lqun



yer yuzidagi barcha yaxshi insonlarning Afandisi  
ekanligiga shubha qilmadik.

Feruz SOYIBJON qizi,  
Shinjon — Toshkent

## 2009-YIL QISHLOQ TARAQQIYATI VA FAROVONLIGI YILI

### YANGI KUN MUBORAK, QISHLOQDOSHLARIM!

Bobojonim har gal ona Vatanimizning bebaho  
tarixi haqida so'z ochganlarida, shirin suhbatlarini  
intilqik bilan tinglayman.

Qishlog'imiz xalqi azal-azaldan mehnatkash  
bo'lib, asosan, dehqonchilik bilan shug'ullangan.  
Buxoro amiri o'z mulozimlari bilan qishloq  
hududidan o'tayotganda, qo'shho'kiz bilan yer  
haydayotgan dehqonlarni ko'rib, ularning turmush  
tarzi bilan qiziqqanlar. Bu hududga «Qo'shxona»  
deb nom beriladi. Shundan buyon qishlog'imiz shu  
nom bilan yuritila boshlandi.

Har sahar yangi  
kunni qarshilayot-  
ganimda, tonglari  
farzand kulgusidan,  
tunlari esa ona allasidan  
shukuh olgan, har  
lahzasi munavvar  
bo'lgan mo'jazgina

Vatanim — ona qishlog'im tarovatidan bahra  
olaman, ko'nglim osmon qadar yuksaladi. Ilk bora  
qadam tashlashdan mustaqil hayot sari  
yetaklayotgan beg'ubor bolaligimning g'animat  
daqiqalari, har onida mujassam, menga huzur  
bag'ishlayotgan bu tabarruk zaminni hech narsaga  
tenglashtirib bo'lmaydi. Uning xushchaqchaq  
donishmand insonlaridan mehr-shafqat, e'tiqod,  
iymonni o'rgandim. Mehnatkash, mushfiq  
xalqimning har jabhadagi fidoiyligi-yu  
jonkuyarligini ko'rib, sadoqatidan saboq oldim.  
Bilasizmi, qishlog'im odamlarining o'ziga xos  
soddaligi, ochiq ko'ngilliligi va muruvvatini hech  
qayerdan topib bo'lmaydi.

Yo'l yoqalab ketar ekanman, yangi kun  
muborak, qishloqdoshlarim, deb hayqirgim keladi.

Sarvinaz NARZIYEVA,  
Buxoro tumanidagi 14-maktab o'quvchisi



«Qishlog'im — qalb  
ardog'im» tanloviga

## ANA, SHUNAQA GAPLAR!

Ko'pchilik tengdoshlarim, ta'tilda zerikib qolyapman, deyishadi. Men ularni sira tushunolmayman. Axir ta'tilda ham zerikib qolarkanmi?! Sevimli mashg'ulotimiz bilan shug'ullanish uchun vaqtimiz bemaol bo'ladi.

O'zim haqimda gapiradigan bo'lsam, har bir kunimni rejalashtirib olganman. Bir kuni sport to'garagidagi mashg'ulotlarimga borsam, boshqa kuni rasm to'garagiga qatnayman. Uyda qolgan kunlarim ustozimning ta'til kunlariga bergan topshiriqlarini bajaraman. Badiiy kitob o'qish jon-u dilim.

Bu yil 1-sinfiga qadam qo'yaman. Ta'tilda barcha darsliklarimni o'qib chiqmoqchiman. Hali maktabga bormas ekan-u, kitob o'qiyman, deb aravani quruq olib qochyapti-ya, deyayotgandirsiz?! Aldayotganim yo'q, ishonavering. Shayxontohur tumanida joylashgan 45-maktab qoshidagi tayyorlov guruhida ustozim Dilnoza opa Mirsagatovadan o'qish, yozishni o'rganib olganman-da.

Ana, shunaqa gaplar!

Sherzodbek SAIDKARIMOV



Buvimning gilosi pishibdi,  
Uzilib, savatga tushibdi.  
Qo'shaloq ekan-a bir gilosi,  
Ko'nglim der: «Uni qulog'ingga os!»  
Gilosga qarasam, ishtaham  
Misoli karnaydek ochildi.  
Yegani ko'z qiymas, hidlari  
Bir zumda borliqqa sochildi.  
Muammo yechimin topishni,  
Singilcham zimmasiga oldi.  
Yonimga keldi-yu, gilosni  
Shoshilib og'ziga soldi.

Mahfuza JALOLIDDINOVA,  
Andijon viloyati, Andijon tumani

## QIZIQARLI MASALALAR

1. Ikkita sonning yig'indisi 431 ga teng. Sonlardan birining oxiri «2» raqami bilan tugaydi. Agar bu son o'chirilsa, 2-son hosil bo'ladi.  
Savol: Har ikkala sonni toping.

2. Shahzodaga qirol, qirolicha va enaga 55 dona kitob sovg'a qildilar. Enaga sovg'a qilgan kitoblarning uchtasi qirolichaning kitoblari qatoriga qo'shib qo'yilsa, qirol va enaga tomonidan tuhfa etilgan kitoblar soni teng bo'ladi. Qirolicha sovg'a qilganlari esa qirol kitoblaridan uch marta ko'p bo'lib qoladi.  
Savol: Kim qancha kitob sovg'a qilgan?

Dilnoza USMONOVA,


O'zMU qoshidagi Sobir Rahimov akademik litseyi o'quvchisi

## Topishmoqlar



Undan yasalar beshik,  
Goho deraza, eshik.  
Dala, bog'da o'sadi,  
Quyoshni ham to'sadi.  
Soyasi tanga rohat,  
Bu nima, top, Sabohat?

Go'yo qoqilgan qoziq,  
Yerdan oladi oziq.  
Sochi yerning ustida,  
Palovxonning do'sti-da!



Abdusattor G'OFUROV,

Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 42-maktab direktor o'rinbosari


## Xandalar

BOBO VA  
NABIRA

– O'g'lim, bor, bobongning yuzidan o'pib qo'ygin, – dedi ona o'g'liga.

Bola bobosining uzun soqoliga, shopdek mo'yloviga biroz tikilib turdi-da:

– Oyi, bobomning o'padigan joyi yo'q-ku, – dedi.



## ZERIKIB QOLMAYSANMI?

- Alijon ukangning ismi nima?
- Mening ukam yo'q.
- Singlingniki-chi?
- Singlim ham yo'q.
- Iye, unda kim bilan urishasan?..



Ko'kning oltin soqqasi tog' ortiga o'tayotganda, juda ham chiroyli qizil gardish hosil bo'ladi. Uni shafaq deb atashadi. Xuddi shu payt oq laxtak bulut oltin soqqani to'sib olmoqchi bo'ladi-yu, lekin borliq qizil rangga bo'yaladi. Keksalar ana shu manzaraga ko'z tashlab: «Erta havo ochiq bo'larkan», deya karomat qilishadi.

Butun umrini yaylovlarda o'tkazadigan cho'ponlar esa tag'in ham sergakroq bo'lishadi. Ko'kada aylanib qolgan bir shapaloqqina qora bulut yuzlab otarlarga ikki-uch soat ichida qanchalar dahshat solishini bilishganlarida edi...

Biz minib borayotgan otlarimizni gamchi bilan niqtanimizcha tog' yoqalab borardik. Sobirali ot jilovini holi qo'yib, o'ng tomonimizda hayqirib oqayotgan soyning tor va nishab joylaridagina tizginini tortib:

– Mahkamroq ushla, yopishibroq, yopishibroq ushla, Homit, – deya qovog'ini uyib borardi.

Manzilimizgacha yana besh chaqirimcha bor hali. Jilg'adan o'tib, katta yo'lga chiqib olganimizda ham unchalik qo'rqinchli bo'lmas edi. Bu ilonizi yo'llarda och bo'ringning uchrab qolishi ehtimoldan holi emas edi. Lekin biz na och bo'ringning dahshatini, na tobora yaqinlashayotgan zimiston qo'ynini o'ylardik. Zudlik bilan shahardan shifokorni olib kelish vazifasi gardanimizga yuklangan edi.

O'n chog'lik uyi bor do'ppidek qishloqning erkaklari erta tongdayoq otarlarini qir ortiga haydab ketishgan edi. Chamamda, ular endigina uylariga qaytishib, Nurjon opaning ko'richakdan qornini changallab, to'lg'onib yotganidan xabar topgan bo'lsalar kerak.

– Qirga bedov solish kerak, – dedi Mirg'ozi chol egri yog'ochdan o'ziga yo'nib olgan hassasini yerga «do'q-do'q» qilib urarkan.

– Qanaqa qirga, ota? – dedi ho'ngrab yig'layotgan kelini Oybadan hammaga birma-bir qarab chiqar ekan mo'ltiragancha: – Axir kim boradi, kim? Borgandayam, qirga emas, shaharga chopish kerak.

– Gapni olib uchadigan simniyam uzilmaydigan qilib o'ylashmagan ekan-da uni topganlar, – yana g'uldirdi Mirg'ozi chol kechagi shamolda uzilib ketgan telefon simiga ishora qilib.

Shu chog' Sobirali menga qaradi-yu, ko'zlarini pipiratib turib qoldi. Uning chaqnaq turgan qiyiq ko'zlaridan: «Homit, ikkalamiz ham yigitlarmiz-ku, og'zimizni ochib qarab turamizmi?» deganday ma'noni uqsam ham, hozirgina ko'kada paydo bo'lgan bir parcha qora bulut dahshatidan qaltirab ketdim. Lekin Sobiraling chaqnoq nigohi qo'rquvdan kuchliroq edi, shu tobda.

– Qaysi otni minamiz? – dedim beixiyor Sobirali va Mirg'ozi cholga qarab.

– Qayoqqa? – so'radi amakimning xotini xavotirlanib.

– Shaharga-da, shifokor olib kelgani.

To'planishgan xotin-xalaj-u chol Sobirali bilan menga o'girilib qarashdi.

– Sel-chi, sel? – deyishdi bir-ikkitalari boshlarini tepaga qilib boshlangan jalaga ishora qilib.

– Sel deb qarab turaveramizmi, a? Yordam so'rab bormasak bo'lmaydi. Kim bilsin, tag'in...

G'ala-g'ovur boshlandi.

– Kuchli selgacha yetib olamiz, – dedi Sobirali boshqalarning gap-so'zlarini shartta kesib.

Sobirali bu gapni ayollarning ko'ngillarini tinchitish uchun aytdimi, harqalay boshqa hech kim savol bermadi. Mirg'ozi chol o'g'lining poygaga minadigan bedovini egarlashga ulgurdi.

– Jilg'aning chap tomoni bilan kettinglar, uzoq bo'lsayam, – baqirib qolishdi orqamizdan.

Biroq, biz otni o'ng qirg'oqqa solgan edik.

Ot pishqirib besaranjom bo'lganday tuyuldi. Sobirali boshini qimirlatib, yuzini men tomon o'girgan bo'lsa ham, yomg'ir-u yana qorong'ilikda uni aniq ko'ra olmadim. Faqatgina miyamda: «Bu bo'ridan boshqa narsa emas», degan o'y keldi, xolos.

– Yordam beringlar! To'satdan birovning ovozi tun qorong'isida yangrab ketdi.

– Nima? – deb baqirdi Sobirali.

– Yordam beringlar, yordam!

– Tun qorong'usining yana ham ichkarirog'iga kirib, otdan irg'ib tushdik. Sobirali ot jilovini menga tutqazib, ovoz kelgan tomonga tag'in ham yaqinroq borib baqirdi:

– Kimsiz?


– Yaqinroq kel! Ha, yaqinroq, qo'rqma, ukam. Qo'l-oyoqlarim-u bellaringacha sinib ketganga o'xshaydi. Sen... sen kimsan, bola?

– Kim bo'lardik, ikki kishimiz, amaki, –javob qaytardi Sobirali.

– Peshonalarigiz toshdan bo'lsin, yaqinroq, ha, yaqinroq kellaring-chi, ukajonlarim, – inqillagan ovoz bazo'r keldi.

– Nima bo'ldi, amaki?

# SEL



– Otdan yiqildim. Toshga quladim chog'i. Oyog'im singan. Yelkalarim ham sog' emas. O'zlarigiz nima qilib yuribsizlar, katta seldan qo'rqmasdan-a? Selni ko'ryapsizlarmi, axir, – u o'zidan ham avval bolalar hayotini o'ylab koyib qo'ydi.

Burnim kerildi. Bu odam rosa qizig'ey, otdan yiqilib, hammayog'im sinib ketdi deyapti-yu, tag'in bizga achinishini qaranglar-a, deganday o'z-o'zidan yelkalarimni uchirib qo'ydim. Sobiraling bo'lgan voqeani unga tushuntirayotgani elas-elas quloqqa chalinaridi.

– Ovozindan Xalchani o'g'li emasmi?

– Men sizni tanidim. Mol do'xtirisiz-a, Mirvali amaki?

– Homit, ho, Homit, ovozimiz kelayotgan tomonga asta-sekin kelaver, mol do'xtirimiz Mirvali amaki otdan yiqilpti, yordamlashvormasak bo'lmaydi.

Vaqtni qo'ldan bermaslik kerakligini yaxshi tushungan Mirvali aka og'ir bir ingrab qo'ygandan so'ng:

– Baribir uchchalamiz bitta otda ketolmaymiz.

Yaxshisi, ikkalamiz tezroq yetib borishingiz lozim. Qani, jo'nanglar-chi! – dedi Mirvali amaki bizga buyruq berib.

– Yo'q, yo'q, – dedi Sobirali. – Homit siz bilan boradi.

To'g'rimi, Homit? Yo qo'rqasanmi, a?

– Nega qo'rqay? – dedim ichimga qaltiroq kirgan bo'lsa ham sir boy bermay.

– Yolg'iz o'zing qanday bo'larkin-a? – dedi Mirvali amaki og'riqning zo'ridanmi qattiq ingrab.

– Men ketdim, – Sobirali irg'ib otga mindi-da, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ammo anchagacha tog'-toshlarda ot tuyoqlarining chaqnagan ovozi eshilib turdi.

– Mana, selni kattasi yana boshlanyapti, – dedi Mirvali aka azob berayotgan oyoqlari-yu bellarini siypalaganicha.

– Shamollab qolasiz-ku, amaki, – dedim unga achinib.

– Gaplaring to'g'ri, bolakay, – dedi u hamon og'riqqa chidayolmay, – pana-panaga o'tib olganimizdayam... Sovuq o'tib, qattiq shamollab qolmasak go'rgaydi, bolajon. Nimagayam sening men bilan qolishingga rozilik berdim-a? – dedi Mirvali aka og'riq azobida lablarini ezg'ilab.

– Odamniyam kichkinasi yaxshiroq ekan, – dedi uni nariroqqa sudrab borish uchun majolim qolmay hansirayotganimni sezib. – Ammo shu yo'g'on gavam bo'lmaganida, ikki marta bo'ri bilan olishib, unga yem bo'larmidim?..

– Otingiz yomon ekan, – dedim seldan panaroqqa

yetib olgach biroq ko'nglimiz tinchlanganda.

– Nega unday deysan? – Inqillab so'radi Mirvali amaki.

– Yiqitib yuboripti-ku, axir. Yaxshi ot yiqitmaydi.

– Toyib ketdi, toyib, – oting yonini oldi u. – Ha, bechoraginam, soyga yiqilib, baliqlarga yem bo'ldi, chog'i. Hali unga necha yil achinib yuraman ekan. Unga judayam o'rganib qoluvdim.

Shundan so'ng, Mirvali amaki jimi bo'lib qoldi. Qo'rqib ketdim. Ammo yana og'riq qo'zidi shekilli, chunonam ham qichqirdiki, selning shuvullashi bo'lmaganda, uning baqirganini butun ovuldagilar eshitishgan bo'larmidi...

Sobiralin uch yildan buyon yaxshi taniyman. Har yili yaylovga bir-ikki kelish odatim bor. Sobirali ham biznikida ikki-uch marta bo'lgan.

Amakimning o'tovi joylashgan yaylov menga juda juda yoqqani uchunmi, bir yili kelmay qolsam, o'zimni shaharga sig'may qolayotgandek his qilaman. Yong'oqzor va olmazorlarning zo'ri shu yerda. Bahor kelishi bilan yaylov yana ham go'zallashib ketadi. Maktabimiz muzeyidagi turli hayvon va parrandalarga o'xshash yog'och ko'rgazmalarning ko'pini o'zim topib keltirganman. Bu haqda gazetaga yozishgan edi, negadir chiqmadi. Balki bolalar meni aldashganmi? Jug'rofiya o'qituvchimizning kasal bo'lgan onasi ham o'zining aytishicha, men tog' va yaylovlardan terib keltirgan dorivor o'simliklardan shifo topgan emish.

– Hozir esa tepamizda ayvonchaga o'xshash so'ri tushgan toshdan pastga daryodek bo'lib suv quyiladi, pastda esa tog' toshlarini yalab-yulqayotgan soy battar dahshat solib guvillar, kuchli chaqmoq yorug'ida esa tobora qirg'oqqa ko'tarilayotgan suv lip etib ko'rinib qolayotgan tog'ni ham qo'porib, oqizib ketadiganday qo'rqinchli edi.

Bilsangiz edi, qancha soatlar ana shunday qo'rqinch va dahshat bilan olishganimizni... Bunday voqea endi hayotimda hech qachon bo'lmas kerak. Bu kun mening eng baxtsiz va qo'rqinchli kunim bo'lib qoladi. O'sha tunda bundan buyon hech qachon yaylovga chiqmaslikka ont ichdim. Miyam juda tez va aniq ishlasa-da, ikki soat davomida yuz bergan sel bilan chamamda bir umr olishganday bo'ldim. Mirvali amaki esa hushidan ketib qolgan edi. Keyin nima bo'lganini issiq uyda badan-badanimga jon kirib, yuragimning gupillab urishidan keyingina bildim.

– Sizlar kelganingizda, rostdan hushimdan ketgan ekanman-da? – so'radim Sobiralidan.

– Be, mendan nimani so'rayapsan? – dedi u kulimsirab. Shaharlik bo'lganini bilan tog' bolalarnikiday tog'cha yuragim bor ekan, oshnam. O'zing qaltirab, tishlaring taqirdaydi-yu, Mirvali amakini ot ustiga olishga yordamlashganingga qoyilman, – dedi Sobirali yelkama do'stona qo'lini tashlab. – Mirvali amaki ham, Nurjon opa ham senga rahmatning kattasini aytib yuborishdi. Ha, aytganday, buyog'iga suyungchisini bersang ham bo'ladi, Hamidjon, – dedi ilk bor meni «Homit» emas, o'z ismimni to'liq qilib aytarkan. – Erta-inda, gazetaga ham chiqsang kerak hali. Muxbir kelganda, bitta qo'ymay hamma voqeani aytib berishibdi.

\*\*\*

– Yozgan inshoying menga yoqdi. Yaylovga tez-tez borib turishingni bilardim-u... Ishqilib, bo'lgan voqea emasmi, a? – so'radi o'qituvchimiz.

– Hammasi bo'lgan voqea, – dedim sekin.


– Unday bo'lsa, hayotingdagi eng yomon va eng dahshatli voqea emas ekan. Eng yaxshi, eng baxtli kun deb to'g'rilab qo'ysam maylimi? – so'radi o'qituvchimiz. G'alati bo'lib ketdim quvonganimdan.

– Bildim... – dedim.

– Birovning hayotini saqlab qolish ayrim kattalarning ham qo'lidan ham kelavermaydi. Tag'in maqtovdan taltayib ketmagin-u, ha, yaxshi ish qilgansan baribir, – dedi boshini silkitib. Sobirali bilan yaxshi o'rtoq bo'lib qolinglar bundan keyin ham.

Sobiraling o'rtog'i ekanligimdan anchagacha xursand bo'lib yurdim-u, ammo «Endi yaylovga hech qachon bormayman», degan gapimning ustidan chiqolmadim.

## YAXSHI BO'LIH OSONMAS



Husanboy AVVALOV  
olgan surat

– Yomon bo'lishni xohlaysizmi?

– Yo'q, hecham xohlamaymiz...

– Yaxshi bo'lmoqchimisizlar?

– Ha, ha. Men, men yaxshi bo'laman, – deyishadi bolalar qo'llarini baland ko'tarib.

Yaxshi bo'lishga shohayotgan bolajonlardan ustoz: «Nimalar qilsak, yaxshi bola bo'lamiz ekan-a?

– deb so'rasa, ular:

– Mashq qilsak, sportni sevsak, dangasa bo'lmasak, – deyishadi barobariga.

Angren shahridagi 45-maktabgacha ta'lim muassasasida 20 yildan buyon jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lib ishlayotgan Mavluda opani bolajonlar juda yaxshi ko'rishadi.

Tarbiya muhim, o'ta murakkab ish. Ammo mohir ustoz ko'p yillardan beri bu ishning nozik sirlarini mustahkam egallagan. Qanday qilib, dersiz?! Ajablanmang, keling, yaxshisi, Mavluda opaning hikoyasini birga tinglaymiz.

– Yaxshi bo'lamiz, degani bilan, yaxshi bo'lish osonmas. Uning shartlarini


xuddi «yashil chiroq» qoidalari kabi uqmoq kerak. Avvalo, bolajonlarga do'stman. Ko'p gaplashib, ularning fikrini tushunaman. Tushunmagan narsalarini tushuntiraman. Birgalikda mashqlar bajaramiz. Ayni kunda maskanimizdagi 70 nafar bolajonlarga sportni sevishni, unga do'st tutinishni o'rgatyapman. Yaxshi bola bo'lmoqchimisiz? Unda, bog'chamizga keling! Mashg'ulotimizda qatnashasiz, tetiklikning siri badantarbiyada ekanligiga amin bo'lasiz.

O'z muxbirimiz

Suratda: Mavluda opaning shogirdlari chaqqonlik mashqini bajaril-yapti.

«Bilol karate» klubining nomi Har xil kolleksiyalar to'plashni nafaqat poytaxtimizdagi, balki respublikamizdagi ko'plab sport Yash sportchining orzulari juda muxlislariga yaxshi tanish. O'ziga mol: kelajakda qurolli kuchlar xos nufuz va an'anaga ega bo'lgan safida xizmat qilish, O'zbekiston klub sportchilari shahar, respublika sharafini munosib himoya qiluvchi hamda xalqaro turnirlarda ishtirok sportchi bo'lib etib, sovrinli o'rinlarni egallab yetishish.

kelmoqdalar. «Bilol Uchtepa tumanidagi 116- karate» umumta'lim maktabining 6-«A» sinf klubi o'quvchisi Muhammadjon Shokirov yoshlari mazkur klubda shug'ullanayotgan umidli yoshlardan biri. Berilgan topshiriqlarni qunt bilan bajarish, mustaqil ravishda o'z ustida ishlash unga katta imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Mazkur yil karatechi uchun omadli keldi. Dastlab Andijonda bo'lib o'tgan «Oltin vodiy» xalqaro ochiq birinchiligida 3- o'rinni egallagan bo'lsa, Qashqadaryoda o'tkazilgan



## KUALA-LAMPURGA BORGAN BOLA

O'zbekiston birinchiligida 2- o'rinni jismonan sog'lom bo'lislari bilan egalladi. Shu yilning may oyida bir qatorida, ma'naviy komillik sari Malayziyaning Kuala-Lampur ham intilmoqdalar. Ma'naviyatli shahridagi xalqaro ochiq turnirda kishilar esa hech qachon yosh sportchimiz Vatanimiz sharafini qoqilmaydilar.

munosib himoya qildi. Final Ikki bor Olimpiada o'yinlari bahsida quvaytlik sportchi Al sovrindori Artur Taymazov Fotihga qarshi murosasiz bahs gazetamizga bergan intervyusida, olib borib, shohsupaning 2- yagona orzum – uchinchi bor o'rniga chiqdi. Olimpiada o'yinlari g'olibi bo'lish, degan edi.

M u h a m m a d j o n degan edi. mashg'ulotlardan bo'sh Ajabmas, Muhammadjonning paytlarida xorijiy tillarni orzusi ham shunday bo'lsa... o'rganishni kanda qilmaydi.

Yusuf ABDULLAYEV

## TEMUR BOBO SAN'ATI

Bolalar, biz bilamizki, har bir sport turining o'z vatani bo'ladi. Jumladan, taekvan-doning vatani Koreya, karateniki Yaponiya, muay-tayniki Tailand...

Bu tarixiy sport turlari qatoriga endilikda bizning sport turimiz ham qo'shildi. Uning nomi o'zbek jang san'atidir.

Sizga bu yangi sport turi haqida faxrlanib gapirishdan avval, tariximiz haqida bir-ikki og'iz so'zlab o'tsak:

– Amir Temur bobomiz o'z armiyasini asosan piyoda va otliq askarlardan tuzganligini siz tarix kitoblaringizdan o'qigansiz. Askarlar jangda faqat tosh, g'ola, nayza, o'q-yoy, gurzi, cho'qmor va yog'ochlardan foydalanishganini ham kinofilmlar orqali tomosha qilgansiz. O'sha paytda dono Temur bobomiz lashkarlarini qurol-yaroqsiz ham dushmanga qarshi janglarda qo'l va oyoq zarbalaridan foydalanishga o'rgatgan ekanlar. Bugungi qilichbozlik, kamondan o'q otish, toshlarni uzoqqa uloqtirish kabi sport turlari o'sha davridayoq bobomiz lashkarlari tomonidan o'zlashtirilgan. Bu Temur bobomizning haqiqiy jang san'atidagi yana bir mahorati edi. Sarkardaning harbiy jang san'ati Yevropa va Osiyoning turli harbiy akademiyalarida asrlar osha o'rgatilmoqda. Rus generali Ivanning «Temurning jang san'ati»ga bag'ishlangan o'quv darsligi o'quvchilar tomonidan qiziqib o'rgatilmoqda. Ayniqsa, qilichbozlik san'ati lashkarlarni o'sha paytdayoq janglarda o'z-o'zini himoya qilish uchun o'tkazilgan mashqlarda toblagan. Bundan tashqari, shamshirbozlik, kamon otish, sopqon kabi o'yinlarda sharq yakkakurashining asosi shakllanganini bugun hech kim rad etolmaydi.

Sharq yakkakurashlarining tarixi uzundur. Mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy asarlariga ishlangan miniatyura rasmlarida, devoriy suratlarda ham milliy jang san'atimizning turli ko'rinishi aks ettirilgan fikrimiz dalili bo'la oladi.

2004-yildan yurtimizda ish boshlagan Sharq yakkakurashlari va jang san'atlarini rivojlantirish markazi ayni damda o'z nufuziga egadir. Hozirda markaz 22 ta sport federatsiyasiga bosh qosh.

Yaqinda markaz yana bir yangi federatsiyasini ochdi. Bu o'zbek jang san'ati federatsiyasidir. Qadimda lashkarlarini hatto qurol-yaroqsiz ham jangga shaylagan Sohibqiron bobomiz ishlarini o'rganayotgan Po'lat Usmonov bilan suhbatlashganimizda, u kishi bizga quyidagilarni gapirib berdi:

– Har bir davlatning o'z jang san'ati bor. Men ham o'zimizning jang san'atimiz bo'lishini istadim. O'ttiz yildirki, yakkakurash turlaridan dzyudo, karate, xapkido, jetkundo, kikkoksing va taekvan-do usullaridan olgan saboqlarimni chuqur o'rgandim. Bu sport turlaridan bobomiz allaqachonlar foydalanganligi meni g'ururlantirdi. Mehmattlarimiz besamar ketmadi. O'zbek jang san'atining ilk mamlakat ochiq chempionati ham bo'lib o'tdi. Dastlabki chempionatda 600 nafar sportchilar qatnashishdi. Hozir yangi federatsiyamizning viloyat bo'limlari ish boshlagan.

Karima SHAYKOVA,  
Toshkent Bank kolleji tillar kafedrasini mudiri



**Boburmirzo Mirfayozov badiiy kitob o'qishni juda yaxshi ko'radi. Uning shaxsiy kutubxonasida 200 dan ortiq turli mavzulardagi kitoblari bor. Sobir Rahimov tumanidagi 249-maktabning 3-sinfini a'lo baholarga yakunlagan Boburmirzo ayni paytda sportning suzish turi bilan ham jiddiy shug'ullanmoqda. Sportsevar, bilimdon, ilm olishga chanqoq tengdoshingizga biz ham havas qildik.**

## NEGA AYNAN NESTEROV?..

Yaqinda Manama shahrida mehmon bo'lgan milliy terma jamoamiz Bahrayn futbolchilariga qarshi maydonga tushdilar. Maqsad 2010-yili Janubiy Afrika respublikasida bo'ladigan jahon chempionatining mundial yo'llanmasini qo'lga kiritish edi. Ammo jahon chempionatiga borish futbolchilarimizga nasib etmadi. Hal qiluvchi o'yin mundial yo'llanmasini bahraynliklarga ravo ko'rdi. O'yinning 74- daqiqasida Mahmud Abdurahmonga jarima nuqtasida omad kulib boqdi. U Ignatij Nesterov qo'riqlayotgan darvozani ishg'ol qildi. Hisob 1:0 bilan yakunlandi. Tomoshabinlar bu golning sababchilari Anzur Ismoilov va Ignatij Nesterovni «qahramon»lar deb atashmoqda. Yana «Bahrayn milliy stadioni»da kiritilgan yagona golda ham ularni ayblashmoqda.

Men kichik futbolchiman. Nega kattalar Nesterovning shu o'yindagi besh-olti xavfli vaziyatlarni bartaraf etgani haqida gapirmay, yagona gol o'tkazgani uchun «qahramon» deb atashmoqda. 5-6 marta o'ta jiddiy vaziyatlarni ushlab qolmaganida, 5:0 ga yutqazib, rosa uyatga qolgan bo'lardik-ku, axir!

Nima bo'lganda ham, jahon chempionatiga chiqqan olmaganimizda, iltimos, Nesterovni ayblamanglar, kattalar!

Sardor SODIQOV,  
«Paxtakor» futbol maktabi darbozaboni, 11 yosh





Qog'ozlarga ko'milib, gazetaning navbatdagi soni uchun materiallarni saralab turganimda, Ma'mura opamiz: «Mumkinmi?» deb ichkari kirdi. Biror maqola yuzasidan ishlari bo'lsa kerak, deb o'ylagandim, u

**Maysalarni tush ko'rib  
Yotganida ona yer,  
Meni shirin uyqudan  
Uyg'otadi go'zal she'r...**

Maqto'v o'z yo'liga-yu, ammo mana shu to'rt qatorda jam bo'lgan dunyoni, keng tafakkurni, samoda uchib ketayotgan ona yerni, go'zallikni va uni asrashga undayotgan bokira tuyg'uni his etdim. Katta fikrni bunday lo'nda, sodda va eng muhimi, go'zal ifodalash uchun ham katta aql bilan birga, katta hayotiy tajriba ham kerakligini o'zingiz yaxshi bilasiz. Uning «Cog'inch» she'ridagi quyidagi satrlar fikrimizni to'ldiradi:


**Men qishloqqa ketaman bir kun,  
Yuraginga solib o'zimni.  
Daraxtzorlar peshvoz chiqadi  
Onam kabi o'pib ko'zimni.**

Nega u o'zini yuragiga solib ketmoqchi? Nega u daraxtlarni onasiga o'xshatayapti? Bu savollarga o'zingiz javob topolmasiz, men boshqa tomonga fikringizni qaratmoqchiman. Har kuni tahririyatimizga o'nlab she'r, to'la xatlar keladi, telefondan: «Qizim she'r yozyapti, yordam berib yuboring», degan iltimoslar tinmaydi. Hali she'rni o'qib, bo'lar-bo'lmas yana qo'ng'iroqlar jiringlaydi va hali she'ri yaraydimi, yo'qmi, buni o'ylash o'rniga: «She'r yuborgan edim, qachon chiqarasizlar?» degan qupol muomala boshlanadi. Lekin bor gap shuki, she'rlar orasidan yilt etganini jon deb chop etishga shoshilamiz. Ammo juda ko'p o'quvchilarimizning bir xil mavzuda, sayoz, o'ta siyqa she'rlar

bitayotganini qanday baholash mumkin?! Xo'sh, bu gaplarning Ma'mura Madrahimovaga nima aloqasi bor? Aloqasi borligi shundaki, Ma'mura opangiz arzon maqto'v-u shuhratning ortidan quvayotgani yo'q. Shu darajada yaxshi she'rlar yozish uchun ijod bog'ining juda ko'p baland-pastliklardan o'tib keldi, qalam va qog'oz bilan ishlash degan og'ir mehnatning zahmatini ko'p ko'rdi va bugun ham ijodga u ehtiyotkorlik bilan yondoshib, pishiq, puxta she'rlar bitmoqda:

**Dunyo, meni olgin yashirib,  
Yaproqlarning nafis kaftiga.  
Men qalbimni isitib olay,  
Munis quyoshimning taftiga.**

Mazkur to'plamdagi uning bolalarga atalgan she'rlari ham fikrim kengliklarida nihol kabi undi. «Sapuraga atalgan she'r», «Yana moshxo'rda», «Mohira va Xurshidaga», «Eski uyimda» she'rlarini Siz – aziz bolalar ham bir o'qib ko'ring-chi, «Siz uchun eng go'zal dunyo bo'laman», deya ezgu niyatlar qilgan opangiz olamining toza havosi-yu xushboy hidlari, jarangdor va mayin kuylaridan yuragingizda yangi bokira tuyg'ular uyg'onishiga ishonaman.




iymanibgina: «Shuni chiqaruvdim», deya chiroyli

**SIZ UCHUN GO'ZAL  
DUNYO BO'LAMAN**

muqovali yangi kitobini qo'limga tutqazdi. Ijodkor uchun kitob chiqarishdan ortiqroq baxt yo'q. Chunki bu narsa uning borlig'i, hayot mazmuni, orzusi, tilagi, eng bokira va eng yuksak quvonchidir. Shu boisdan ham, aziz bolalar, qaysi do'st-u tanish ijodkorning kitobi chiqarkin, bu biz uchun ham shirin voqea bo'ladi, bunday paytlarda muallifni tabriklab qo'yishni sira ortga surmaymiz.

Bolalikning izlari... undan qanday nurlar, tuyg'ular, xotiralar izlagan ekanlar? Inson yanglikka tashna bo'ladi. Biz ham yangi she'rlarga shitob bilan ko'z yugurtiramiz.



Foziljon ORIOV tuzdi

1. Toshkentning bosh maydoni.
2. Qadimiy suv yo'li. Bo'zsuvning o'ng irmog'i.
3. Shaharning qadimiy darvozalaridan biri.
4. Stadionlardan biri.
5. Toshkentda tavallud topib, ijod qilgan ustoz adib O'zbekiston xalq yozuvchisi.
6. Toshkentga eng yaqin joylashgan shahar.
7. Shaharning qadimiy to'rt dahasidan biri.
8. Poytaxtimiz yaqinidagi oromgoh ko'l maskani.
9. 1913-yilda tashkil etilib, keyinchalik «Turkiston» nomini olgan madaniy-ma'rifat jamiyati.
10. Qoraqalpog'iston poytaxtiga nomdosh san'at maskani.
11. Ko'kcha dahasidagi qadimdan davom etib kelayotgan mahallalardan biri.
12. Vokal cholg'u guruhi.
13. Chirchiq -Bo'zsuv tarmog'idagi elektr stansiya.
14. Me'moriy obidalar bunyod etilishida ishtirok etgan ganch o'ymakori, O'zbekiston xalq rassomi.
15. Aziz diyori.
16. Toshkentda yashab ijod etgan ma'rifatparvar shoira, birinchi o'zbek jumalist ayoli.
17. Arxeologik topilma, shaharning qadimiy xarobasi nomi bilan ataluvchi metropoliten bekati.
18. Faoliyatini Toshkentda boshlagan Vatanimiz yoshlar ijtimoiy harakati tashkiloti.
19. Qadimiy darvoza nomi bilan ataluvchi turar joy.
20. Ashula va raqs guruhi.
21. Poytaxtning eng muhtasham san'at saroyi.
22. Qadimiy mahallalardan biri.
23. XVI asrda bunyod etilgan me'moriy obida, ma'rifatparvar shoir Zokirjon Holmuhammad o'g'li Furqat yashab ijod etgan madrasa.
24. Nashriyot-matbaa muassasasi.
25. Turar joy maskanlardan biri.
26. Qadimda Toshkentning to'rt qismidan biri hisoblangan daha.
27. Hozirgi Chorsu maydonida XV-XIX asrda shakllangan masjid va madrasalardan tarkib topgan me'moriy majmua.
28. Hazrati Imom majmuasi tarkibidagi me'moriy yodgorlik.
29. Poytaxtimizning tumanlaridan biri.
30. XIX asrda bunyod etilgan me'moriy obida, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori, Abdulla Qodiriy ijod sohiblari tahsil olgan madrasa.

**MUAMMONOMA**

Kalit so'zlar:

1. Toshkentning ilk nomi – 15,10,15.
  2. Qadimiy darvozalardan biri – 1, 18, 3, 2, 6, 20.
  3. Toshkentda yashab o'tgan Bobur huzurida bo'gan o'rta asr tarixchisi, huquqshunos, tarjimon Ali Qushchining jiyani – 10, 18, 12,2,10,5, 3.
  4. X asrda Toshkentda yashab o'tgan, sharafiga Hazrati imom qadamjosi bunyod bo'lgan taniqli alloma – 13, 9,13,5,3.
  5. Vatanimizdagi o'smir yoshdagilar tashkiloti – 10, 6, 2, 6,16,6,10.
  6. XVIII asr oxiri, XX asr boshlarida amalda bo'lgan shaharning ma'muriy-hududiy birligi – 11, 6, 12,6.
  7. Toshkentdagi eng katta futbol inshooti – 20, 6,17,7,6,10,9, 14.
  8. Eng aziz ne'mat – 4, 9, 4.
  9. Shahar transporti turi – 7, 14,6,2,8,6,3.
- Endi shakl atrofidagi raqamlarni kalit so'zlari javoblaridagi harflar bilan almashtirib, muammoni hal eting. Bunda Toshkentga berilgan ta'rifni bilib olasiz.



**BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV**

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
G'ayrat SHUMAROV,  
Svetlana INOMOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Dilmurod RAHMATILAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

**Manzilibiz:**  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
**Tel: 244-27-25, 244-63-08**  
**Tel/faks:**  
(99871) 244-38-10

**«O'zbekiston»**  
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
**Adadi - 57745**  
**Buyurtma N: J 7642**

**Muassislar:**  
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lman Xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizaynerlar:  
**Zuhra MUHSIMOVA,**  
**Elyor ESHCHONOV**  
Navbatchi:  
**Feruza SOYIBJON qizi**